Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320465

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISHI

Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li
tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti
avazbek_0555_@mail.ru

Annotatsiya. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday zonani tashkil qilgan mamlakat uchun mazkur hududlar yuqori iqtisodiy samara berib, mintaqaning ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim dastak hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlar tizimida erkin iqtisodiy hududlar asosan xalqaro savdoni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalar almashinuvi, axborot almashish va integratsiyalashgan iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashtirish tufayli jadal iqtisodiy o'sish omili sifatida namoyon bo'ladi. Yuqoridagilar asosida, ishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining rivojlanishi hamda ushbu masalaga oid ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, erkin iqtisodiy hududlar, xalqaro savdo, iqtisodiy munosabatlar, integratsiya, rivojlanish tendentsiyalari, iqtisodiyot, maxsus sanoat zonalari, texnologiyalar, axborot.

Erkin iqtisodiy zonalar - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududlardir [2;7].

Jahon mamlakatlari ichida ro'y birayotgan iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishda (xorijiy kapitalni jalb qilish, sanoat sohasida EIHlar faoliyatini yanada kuchaytirishda) uchta muhim vazifani ko'rishimiz mumkin:

- sanoat eksportini rag'batlantirish va shu orqali valyuta mablag'larini jalb qilish;
- aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish;
- milliy xo'jalikni rivojlantirish maqsadida EIHlarning yangi usullarini amaliyotda qo'llash [4].

EIHlarning eng oddiy ko'rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bu hududlarga tranzit yoki konsignatsion omborlar, eksportga mo'ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash sohalari kiradi. Bunday hududlar ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari deb ham ataladi [5].

Maxsus hududlar (subhududlar) umumiy hududdan tashqariga chiquvchi alohida yirik kompaniyalar uchun tashkil qilinadi. Subhududlarda eksport uchun yoki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. 90-yillarning o'rtalariga kelib AQShda 500 dan ortiq erkin savdo hududlari faoliyat ko'rsatgan.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi yana o'sha maxsus "dyuti fri" magazinlarini kiritish mumkin. Siyosiy rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo'lgan an'anaviy erkin portlarni ham kiritish mumkin.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlari bo'lib hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi, shuningdek ularda faqat savdo bilan emas balkim ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanilishi mumkin. Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li (2024). Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining rivojlanishi. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320465
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bo‘lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Bunday hududlar soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Eksport ishlab chiqarish hududlari (EIChH) ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959 yilda Irlandiyaning Shennon aeroportida tashkil qilingan hududiy tizimiga asoslanadi. Bunday hududlardan hozirgi kunda “yangi industrial davlatlar” katta samara ko‘rmoqda. Eksport ishlab chiqarish hududlarining tashkil topishi mantiqan olganda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liq. 50-60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat eksportini rag‘batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zarurati tug‘ilgan edi.

Turli ko‘rinishdagi EIHlarning o‘xshash tomonlaridan biri tadbirkorlar uchun moliyaviy va bojxona, soliq imtiyozlari, shuningdek umumiy tartibga nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan qulay investitsiya iqlimining mavjudligidir.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlatlarda EIHlar bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport uchun ishlab chiqarish hududlari (EIChX) keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EIChX tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilg‘or fan-texnika, zamonaviy texnik axborotlar vositalarini jalb qilish zarurati turtki beradi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo‘jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkinroq va imtiyozli bo‘ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardan kelib chiqadi.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatida tovar-sanoat diversifikatsiyasi ro‘y beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishishning muhim yo‘nalishlaridan biri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir. Zero, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga keng jalb etilishi ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqishga, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga, aholini ish bilan ta’minlashga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta’minlash maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta’minlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalarni izchil rivojlantirish borasida yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni qabul qilindi [3].

Jadval

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumot [6]

	Jami loyihalar						
	Loyiha soni	Umumiy qiymati (mln.doll.)	O‘z mablag‘i	Bank krediti	RRU	Xorijiy investitsiya	Yaratiladigan ish o‘rni
Jami (21 EIZ)	721	5 418,7	1 105,9	1 472,3	11,6	2 728,9	5 9 582
	Amalga oshirilgan						
	214	1 236,7	385,8	405,1	52,9	392,9	14 668
	Amalga oshirilayotgan						
	411	2119,7	474	717	26,8	902,0	33 312
	Istiqbolli						
	96	2062,3	246,4	350,1	31,9	1434,0	11 602

Erkin iqtisodiy zonalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Ularning maqomi, shuningdek qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror bilan, hududiy chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ular faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjudki, ular shunday zonalarni rivojlantirishga va samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3175-sonli qarori bilan tashkil qilingan Maxsus idoralararo komissiya tomonidan joylarga chiqib o‘rganilganda quyidagilar aniqlangan:

birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o‘rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasi hisobga olinmayapti;

ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma’qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘p oylarga cho‘zib yubormoqda;

uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘z vaqtida barpo etish masalalariga etarlicha e’tibor berilmayapti;

to‘rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta’minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan;

beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari Respublika tovar-xom ashyo birjasi orqali sotiladigan xom ashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelmoqda;

oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda, buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalar parametrlariga muvofiq kelmaydi;

yettinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik

masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari rahbarligida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta’sirchan mexanizmi mavjud emas [2].

Respublikaning Jizzax, Navoiy viloyatlarini iqtisodiy salohiyatini tahlili shuni ko‘rsatganki, bu mintaqalar o‘zining ham qishloq xo‘jalik, ham sanoat ishlab ishlab chiqarish darajasi bilan hududida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, erkin tadbirkorlik va erkin savdo zonalarini tashkil etish uchun qulay hisoblanadi. Har bir mintaqa o‘zining hududida u yoki bu tarmoqni rivojlanish darajasi va mavjudligi bilan farq qiladi. Bu omil EIZning ma’lum yo‘nalishdagi modelini tanlashda rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqarishda va infratuzilmasini yaratishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”. 220-I-son, 1996 yil 25 aprel, https://lex.uz/docs/-2046?otherlang=1 (mazkur qonun 2020 yil 17 fevraldagi O‘RQ-604-sonli «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan 2020 yil 19 maydan o‘z kuchini yo‘qotgan, http://lex.uz/acts/2046)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 2017 yil 25 oktyabr, PQ-3356-son, https://lex.uz/ru/docs/-3392861?ONDATE2=27.04.2024&action=compare

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 2016 yil 26 oktyabr, PF-4853-son, http://lex.uz/docs/3056978.

4. Каримов М.М., Ильина Д.Н., Акрамов А.У. Состояние и перспективы развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан. // Брошюра ПРООН, г.Ташкент, 2015. – С. 61

5. Ergashev A. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo‘shma korxonalar faoliyati samaradorligini ta’minlash, Oct. 27, 2023 https://prezi.com/p/v30-d0b86vc0/xorijiy-investitsiya-ishtirokidagi-qoshma-korxonalar-faoliyati-samaradorligini-taminlash/

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari

7. https://sez.gov.uz/uz/page/info

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING O‘RNI VA UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Suvonqulova Zarinabonu, Baxtiyorov Abduraxmon
Guliston davlat universiteti " Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar”fakulteti talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) daromadlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Soliq undirishning mavjud mexanizmlari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganiladi. QQSni undirishda mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar keltirilgan. Maqolada xorijiy tajribalar va milliy amaliyotlar asosida QQS undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha yangi g‘oyalar aks ettirilgan.